

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**AHOLI VA IQTISODIYOTNI ENERGIYA RESURSLARI BILAN BARQAROR
TA'MINLASH, NEFT-GAZ TARMOG'INI MOLIYAVIY SOG'LOMLASHTIRISH VA
UNING BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI
TO'G'RISIDA**

So'nggi yillarda yoqilg'i-energetika tarmog'ini kompleks rivojlantirish hamda energiya resurslariga tobora oshib borayotgan ehtiyojni ta'minlashning muhim omili bo'lgan energiya manbalarini diversifikatsiya qilish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, geologiya qidiruv ishlari, investitsiya loyihalarini amalga oshirish va narxlarni shakllantirish ishlarining samarasizligi respublika iqtisodiyoti va aholisining energiya resurslari bilan to'liq ta'minlanmasligiga, neft-gaz tarmog'i korxonalari moliyaviy holatining yomonlashuviga olib keldi.

Jumladan, so'nggi 20 yilda tabiiy gaz qazib olish hajmi 8 foizga oshgani holda mamlakat korxonalari tomonidan uni qazib olish hajmi 29 foizga pasaydi, 2008 — 2018-yilda tasdiqlangan tabiiy gaz zaxiralari 4 foizga qisqardi, o'tgan 5 yil davomida tabiiy gazning tabiiy zaxiralari o'rnnini to'ldirish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 70 foizga yaqin hajmni tashkil etdi.

2017-2018-yillarda moliyaviy mablag'larning yetishmasligi va moddiy-texnik resurslarning taqchilligi natijasida tabiiy gaz qazib olishning o'sishi prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 42 foizni tashkil etgan xolos.

Tartibga solish funksiyalari va tijorat faoliyatini o'zida birlashtirgan boshqaruvning eskirgan va shaffof bo'lmagan tizimi neft-gaz tarmog'i korxonalarida zamonaviy menejmentni joriy etishga, ularning moliyaviy barqarorligi va rentabelligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Respublika iqtisodiyoti va aholisining energiya resurslariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, neft-gaz tarmog'i korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirishni ta'minlash, qabul qilingan xalqaro amaliyot asosida sog'lom raqobatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni va ilg'or boshqaruv usullarini joriy etish maqsadida:

1. Xalqaro konsalting kompaniyalari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining neft-gaz tarmog'ini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining neft-gaz tarmog'ini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha respublika ishchi komissiyasi (keyingi o'rnlarda — Respublika ishchi komissiyasi) **1-ilovaga** muvofiq tarkibda tuzilsin.

Respublika ishchi komissiyasi (A.N. Aripov) bir oy muddatda:

a) amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasining neft-gaz tarmog'ini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni tasdiqlasın va bunda quyidagilarga alohida e'tibor qaratсин:

uglevodorod xomashyosini qazib olish hajmlarini ko'paytirish;

gaz-transport tizimini modernizatsiya qilish;

tabiiy gazni qazib olish, qayta ishslash, yetkazib berish va sotishni hisob-kitob va nazorat qilish ishlarini takomillashtirish;

investitsiyaviy loyihalarni tanqidiy o'rganish va maqbullashtirish, shuningdek, ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish;

neft-gaz tarmog'i korxonalarida moliyaviy intizomni mustahkamlash va narx shakllanishini takomillashtirish;

b) O'zbekiston Respublikasining neft-gaz tarmog'ini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining har bir yo'nalishi bo'yicha ishchi komissiyalar tarkibini tasdiqlasın;

v) tashkil qilinayotgan ishchi komissiyalari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining neft-gaz tarmog'ini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish

uchun xalqaro moliya institatlari, xorijiy hukumatlar moliya tashkilotlari (keyingi o‘rinlarda — XMI/XHMT) va konsalting kompaniyalarini jalb qilish choralarini ko‘rsin;

g) Energetika vazirligida boshqaruv xodimlari soni 20 shtat birlidan oshmagan, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Yoqilg‘i-energetika tarmog‘ini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari, XMI/XHMT texnik ko‘maklashish mablag‘lari (grantlari) hisobidan moliyalashtiriladigan neft-gaz tarmog‘ini isloh qilishni muvofiqlashtirish bo‘yicha loyiha ofisi tashkil qilinishini ta’minlasin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligining Osiyo taraqqiyot bankining texnik ko‘magida tayyorlangan va quyidagilarni nazarda tutuvchi “O‘zbekneftgaz” AJ boshqaruvi tizimini takomillashtirish va samarali tashkiliy tuzilmasini shakllantirish bo‘yicha takliflariga rozilik berilsin:

“O‘zbekneftgaz” AJga “O‘zburg‘uneftgaz” AJ, “O‘zneftgazqazibchiarish” AJ, “O‘zneftmahsulot” AJ, “O‘zneftgazmash” AJlarni qo‘sish, “O‘zbekneftgaz” AJ ijro etuvchi apparati tarkibida tugatilayotgan bo‘g‘inlarning vazifalari va funksiyalarini bajaruvchi tegishli bo‘linmalarni tashkil etish orqali tizim boshqaruvida ortiqcha bo‘g‘inlarni qisqartirish;

“O‘ztransgaz” AJni “O‘zbekneftgaz” AJ tarkibidan chiqarish va “O‘zbekneftgaz” AJning “O‘ztransgaz” AJ ustav kapitalidagi ulushini O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) berish;

“O‘ztransgaz” AJning gaz ta‘minoti bo‘yicha hududiy filiallari negizida “Hududgazta’mot” AJni tashkil qilish va Agentlikni uning aksiyadori etib belgilash.

4. Quyidagilarga:

a) “O‘ztransgaz” AJga:

tabiiy gazni keyinchalik yagona operator sifatida yetkazib berish, jumladan eksport va import qilish uchun gaz qazib oluvchi va qayta ishlovchi tashkilotlar, shu jumladan mahsulotni taqsimlash to‘g‘risidagi bitimlar asosida faoliyat yurituvchi qo‘shma korxonalar va xorijiy kompaniyalardan xarid qilish;

Oldingi tahrirga qarang.

to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha “Hududgazta’mot” AJ va magistral gaz uzatish tizimiga ulangan iste’molchilarga tabiiy gazni sotish.

(4-bandning “a” kichik bandi uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-soni Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-soni)

b) “Hududgazta’mot” AJga:

gaz taqsimlash tarmoqlarini va tegishli uskunalarni xavfsiz ekspluatatsiya qoidalarining normativ talablariga rivoja qilgan holda ekspluatatsiya qilish;

Oldingi tahrirga qarang.

suyultirilgan gazni xarid qilish, yetkazib berish, saqlash hamda aholi va ijtimoiy soha obyektlariga sotish;

tabiiy gazni keyinchalik gaz taqsimlash tarmog‘iga ulangan respublika ichki iste’molchilariga, shu jumladan aholiga sotish maqsadida magistral gaz uzatish tizimi orqali yetkazib berilganda — “O‘ztransgaz” AJdan, shuningdek, to‘g‘ridan to‘g‘ri gaz taqsimlash tarmog‘iga yetkazib berilganda — tabiiy gaz ishlab chiqaruvchilaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan tariflar bo‘yicha oldi-sotdi shartnomasi asosida xarid qilish funksiyalari yuklansin.

(4-bandning “b” kichik bandi uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-soni Farmoniga asosan uchinchi va to‘rtinchi xatboshilar bilan almashtirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-soni)

5. Ishlab chiqarish bo‘linmalari ustidan to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqaruv o‘rnatish maqsadida neft-gaz qazib chiqarish va gazni qayta ishlash tashkilotlari yuridik shaxs tashkil etmasdan, 2-ilovaga muvofiq “O‘zbekneftgaz” AJning tarkibiy bo‘linma (boshqarma, zavod)lari etib qayta tashkil qilinsin.

6. Ayrim tashkilotlar “O‘zbekneftgaz” AJga va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlarga qo‘sish yo‘li bilan [3- ilovaga](#) muvofiq qayta tashkil etilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Agentlik, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligining quyidagi takliflari ma’qullansin:

“O‘zneftmahsulot” AJ tasarrufidagi fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi 1 381 ta avtomobilga yoqilg‘i quyish shoxobchalarini tadbirkorlik subyektlariga auksion savdolari orqali sotish hamda olis, yetib borish qiyin bo‘lgan aholi punktlarida yoqilg‘i mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatini ta’minalashning muqobil tizimini joriy qilish;

gaz ta’mnoti bo‘yicha viloyat, tumanlararo (shahar) filiallariga yoki ularning uchastkalariga biriktirilgan gaz ta’mnoti obyektlarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida gaz taqsimlash tarmoqlari va tegishli uskunalarini ekspluatatsiya qilish va iste’molchilarga tabiiy gazni sotish funksiyalarini bajarish uchun xususiy operatorlar boshqaruviga bosqichma-bosqich berish;

“O‘zbekneftgaz” AJ va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarning asosiy faoliyat turi bilan bog‘liq bo‘lmagan, shu jumladan avval qabul qilingan hukumat qarorlariga muvofiq sotish ko‘zda tutilgan aktivlarini, sotuvga qo‘yilgan paytdan boshlab bir oy davomida talabgorlar bo‘lmagan taqdirda boshlang‘ich narxni qadam-baqadam pasaytirish yo‘li bilan sotish;

“O‘zbekneftgaz” AJ tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning bozorlar, savdo va chorvachilik komplekslari ustav kapitalidagi ulushlarini [4- ilovaga](#) muvofiq mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga berish;

“O‘zbekneftgaz” AJ va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarning servis tashkilotlari va boshqa tashkilotlar ustav kapitalidagi ulushlarini [5- ilovaga](#) muvofiq Agentlikka berish;

tabiiy gazni va suyuq uglevodorodlarni qazish, qayta ishslash, tashish, uzatish va sotishning barcha bosqichlarida resurslar hisobini yuritish bo‘yicha elektron uskunalarini qo‘llash orqali ularning alohida hisobi yuritilishini joriy etish;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasiga uglevodorod xomashyosi yangi konlarini aniqlash, zaxiralarni ko‘paytirishni ta’minalash maqsadida respublika uglevodorod xomashyosi zaxiralarini jadal rivojlantirish va qayta tiklash, geologiya qidiruv ishlarining samaradorligi va natijadorligini oshirish bo‘yicha funksiyalarini berish.

8. Hozirgi bosqichdagi eng muhim vazifa sifatida quyidagilar belgilansin:

a) “O‘zbekneftgaz” AJ uchun — 2024-yilga kelib uglevodorod xomashyosi, shu jumladan tabiiy gaz qazib olish hajmini 42,3 milliard metr kubga va suyultirilgan gazni 1,5 million tonnaga yetkazish, shu bilan iqtisodiyot tarmoqlari va aholining ehtiyojlarini to‘liq qondirishni, shuningdek, kompaniyaning daromadi ortishini, shu jumladan quyidagilar hisobidan ta’minalash:

investitsiya kiritishning xorijiy amaliyotda keng tarqagan shartlari va mexanizmlari asosida qazib olinishi qiyin bo‘lgan konlarda uglevodorod xomashyosini qazib olishga dunyoning yirik neft-gaz kompaniyalarini jalb qilish;

mustaqil xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda neft-gaz tarmog‘i korxonalarining operatsion samaradorligini oshirish va xarajatlarini maqbullashtirish, shuningdek, ularning qarz yuklamasini kamaytirish;

ishlab chiqilgan konlarda zamonaviy texnologiyalar asosida uglevodorod xomashyosi qazib olishning unumdorligini oshirish;

2020 — 2022-yillarda milliy neft-gaz tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari bo‘yicha xalqaro tender savdolarida ishtirok etish uchun kamida 6 ta xorijiy neftservis tashkilotlarini jalb qilish;

xorijiy tajribani hisobga olgan holda, shu jumladan “Raqamli kon” konsepsiyasini amalga oshirish asosida ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish;

xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda neft-gaz tarmog‘idagi investitsiya loyihalarini tanqidiy o‘rganish va mahalliy neft-gaz qazib oluvchi korxonalarning real moliyaviy imkoniyatlariga qarab maqbullashtirish;

b) “O‘ztransgaz” AJ uchun — shu jumladan quyidagilar hisobiga gaz transport tizimining “zaif” jihatlarini bartaraf etish va uning tranzit salohiyatini rivojlantirish:

gaz quvurlari va kompressor stansiyalarini, shu jumladan XMI/XHMT mablag‘larini jalb etish orqali qurish, rekonstruksiya qilish;

yer osti gazni saqlash stansiyalarida tabiiy gazni saqlash hajmlarini oshirish;

yuqori bosimli gaz taqsimlash punktlarida tabiiy gaz oqimlarining monitoringi va boshqaruvi tizimini (SCADA) hamda avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarini joriy etish;

v) “Hududgazta’midot” AJ uchun — tabiiy gazni iste’molchilarga yetkazishda yo‘qotishlarni shu jumladan quyidagilar hisobiga kamaytirish:

faoliyat ko‘rsatayotgan gaz taqsimlash punktlari hamda tarmoqlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish;

2022-yilga qadar Tabiiy gazni nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini barcha turdagи iste’molchilar uchun to‘liq joriy etish;

davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida gaz taqsimlash tarmoqlari va tegishli uskunalarini ekspluatatsiya qilish, shuningdek, iste’molchilarga tabiiy gazni sotish funksiyalarini bajarish uchun gaz ta’moti obyektlarini xususiy operatorlar boshqaruviga bosqichma-bosqich berish.

9. Agentlik O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda:

aksiyadorlik jamiyatlarining vazifalari va funksiyalarini bat afsil bayon qilgan holda “O‘zbekneftgaz” AJ, “O‘ztransgaz” AJ, “Hududgazta’midot” AJ ustav kapitallari shakllantirilishi va ta’sis hujjatlari tasdiqlanishini;

“O‘zbekneftgaz” AJ, “O‘ztransgaz” AJ, “Hududgazta’midot” AJ tashkiliy tuzilmalari va ijro etuvchi apparati tuzilmalari tasdiqlanishini, ularning boshqaruv organi shakllantirilishini belgilangan tartibda ta’minasin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi:

a) Agentlik bilan birgalikda ikki oy muddatda “O‘ztransgaz” AJ, “O‘zbekneftgaz” AJ va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlarni qayta tashkil qilish bo‘yicha har bir tadbirning aniq amalgaga oshirish muddati va mas’ul shaxslar ko‘rsatilgan chora-tadbirlar rejalarini tasdiqlas, bunda qayta tashkil qilinayotgan “O‘ztransgaz” AJ, “O‘zbekneftgaz” AJ tashkilotlarining aktivlari va majburiyatlarini xatlovdan o‘tkazish, korporativ boshqaruvning zamonaviy shakllarini joriy qilish, ushbu aksiyadorlik jamiyatlari kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a’zolarni jalb qilish nazarda tutilsin;

b) Moliya vazirligi hamda Iqtisodiyot va sanoat vazirligi bilan birgalikda 2019-yil 1-oktabrga qadar XMI/XHMT va xalqaro konsalting kompaniyalarining texnik ko‘magida “O‘zbekneftgaz” AJ, “O‘ztransgaz” AJ va “Hududgazta’midot” AJdagi rahbarlik lavozimlariga neft-gaz tarmog‘idagi yirik xorijiy kompaniyalarda yoki xalqaro boshqaruv kompaniyalarida ishslash tajribasiga ega bo‘lgan menejyerlarni jalb qilish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin;

v) 2019-yil 1-sentabrga qadar Gaz taqsimlash tarmoqlari va tegishli uskunalarini ekspluatatsiya qilish, shuningdek, iste’molchilarga tabiiy gazni sotish funksiyalarini davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida bajarish uchun gaz ta’moti obyektlarini xususiy operatorlarga berish tartibi to‘g‘risidagi nizom loyihasini ishlab chiqsin, bunda, shu jumladan investorlarni tanlash, shartnomani tuzish va bekor qilish, shuningdek, vositachilik to‘lovlarini miqdorini belgilash va to‘lash, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining boshqaruvga beriladigan hududda tabiiy gaz uchun to‘lovlarini yig‘ish bo‘yicha vazifalarini ularga berish tartibi va investorlarga qo‘yiladigan boshqa talablar ko‘zda tutilsin;

g) 2019-yil 1-sentabrga qadar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshirilayotgan va ishlab chiqilayotgan investitsiya loyihasining doimiy monitoringi, foydalanilayotgan konlar va quduqlar supervayzingini amalga oshirish uchun xalqaro muhandislik-maslahat kompaniyalarini jalb qilishni ko‘zda tutuvchi tartibni ishlab chiqsin;

d) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi, “O‘zbekneftgaz” AJ bilan birgalikda 2019-yil 1-oktabrga qadar quyidagilarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasiga uglevodorod xomashyosining yangi konlarini aniqlash, zaxiralarni ko‘paytirish maqsadida respublika uglevodorod

xomashyosi zaxiralarini jadal rivojlantirish va qayta tiklash, geologiya qidiruv ishlarining samaradorligi va unumdorligini oshirish bo'yicha funksiyalarni berish;

O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasiga geologiya-qidiruv ishlarini olib borish bo'yicha amaldagi loyihalarni, xatlovdan o'tkazish natijalari bo'yicha istiqbolli uchastkalar, investitsion bloklar va uglevodorod xomashyosi konlariiga doir mavjud fond va boshqa materiallarni berish;

mavjud geofizik va burg'ulash uskunalarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalar, dasturiy mahsulotlar hamda zarur maxsus va avtotransport texnikasini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilishni hisobga olib, 2020-yildan boshlab uglevodorod xomashyosi bo'yicha olib boriladigan geologiya-qidiruv ishlarini moliyalashtirish manbalari etib O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag'larini belgilash.

11. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Energetika vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi bilan birgalikda hamda XMI/XHMT va xalqaro konsalting kompaniyalarining texnik ko'magida 2019-yil 1-noyabrga qadar qazib olish, qayta ishslash, tashish va sotish bo'yicha asoslantirilgan ekspluatatsion, operatsion va investitsiyaviy xarajatlar to'liq qoplanishini nazarda tutgan holda, neft mahsulotlari, tabiiy va suyultirilgan gaz tariflarini belgilash uslubini takomillashtirish bo'yicha hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kirtsin.

12. "O'zbekneftgaz" AJ va "O'ztransgaz" AJ:

a) 2019-yil yakunidan boshlab, moliyaviy hisobotlar majburiy tartibda moliyaviy hisobot yuritishning xalqaro standartlariga muvofiq tuzilishini va xalqaro auditorlik kompaniyalarini jalb qilgan holda mustaqil tashqi audit o'tkazilishini ta'minlasin;

b) 2020-yil yakunidan boshlab quyidagilarni:

Hisob va hisobot bo'yicha xalqaro standartlar (ISAR)ning tamoyillari va talablariga muvofiq hisobot e'lon qilishning korporativ standartlarini joriy etish;

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS)ni qo'llash hamda har chorakda faoliyatning asosiy yo'naliishlari bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish va e'lon qilish;

Global hisobot tashabbusi (GRI)ga muvofiq, shu jumladan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik masalalar bo'yicha hisobot chop etish;

xalqaro reyting agentliklari, moliyaviy va yuridik konsulantlar bilan hamkorlikda korporativ kredit reytingini olish;

savdolar, aktivlar rentabelligi, aktivlar va majburiyatlarning aylanishi darajasi hamda boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha xalqaro amaliyot asosida belgilanadigan minimal talablarni amaliyotga joriy etish;

Uglevodorod resurslarini boshqarish tizimi (PRMS) talablariga muvofiq uglevodorod va uning zaxiralarining hisobini olib borish, tasniflash va boshqarish xalqaro tizimini joriy etish;

xalqaro standartlarga muvofiq uglevodorod xo mashyosi zaxiralarining auditini o'tkazishni ta'minlasin;

v) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Agentlik bilan birgalikda XMI/XHMT va xalqaro konsalting kompaniyalari ko'magida 2024-yildan kechiktirmasdan ustav kapitallarida davlat ulushini 51 foizdan kam bo'limgan miqdorda saqlab qolgan holda, mahalliy va xalqaro fond bozorlarida aksiyalarni birlamchi va ikkilamchi ommaviy joylashtirish orqali "O'zbekneftgaz" AJ va "O'ztransgaz" AJga investorlar jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rsin.

13. Belgilab qo'yilsinki:

"O'zbekneftgaz" AJ va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarining mazkur qarorning [4](#) va [5-ilovalarida](#) ko'rsatilgan ulushini mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va Agentlikka berish hamda "O'zbekneftgaz" AJning "O'ztransgaz" AJ ustav kapitalidagi ulushini Agentlikka berish davlatning "O'zbekneftgaz" AJ ustav kapitallaridagi ulushini va "O'zbekneftgaz" AJning o'z tarkibiga kiruvchi tashkilotlardagi ulushini kamaytirish hisobiga balans qiymatida amalgalash oshiriladi;

Oldingi tahrirga qarang.

(13-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyuldagи PF-6258-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.07.2021-y., 06/21/6258/0651-son)

mazkur qarorga muvofiq bir tashkilotdan boshqa tashkilotga, shu jumladan ularning qayta tashkil etilishi va yopilishi paytida topshirilayotgan va olinayotgan mulklar, mulkiy huquqlar, xususan, aksiyalar va ustav kapitallaridagi ulushlar qiymati barcha turdag'i soliqlar bo'yicha soliqqa tortish obyekti hisoblanmaydi;

"O'zbekneftgaz" AJ, "O'ztransgaz" AJ, "Hududgazta'minot" AJ va ularning tashkilotlari qimmatli qog'ozlar emissiyasi chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish yig'imlarini va topshirilayotgan avtotransport vositalarini qayta ro'yxatdan o'tkazishda avtotransport yig'imlarini to'lashdan ozod etiladi;

"O'zbekneftgaz" AJ tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarning qayta tashkil qilinishi natijasida ularga qarashli yuridik shaxslarning 50 foiz va undan ortiq aksiyalariga Agentlik va "O'zbekneftgaz" AJning ega bo'lishi yangidan sotib olingan aksiyalar paketi hisoblanmaydi;

"O'zbekneftgaz" AJ "O'zburg'uneftgaz", "O'zneftgazqazibchinarish", "O'zneftmahsulot" va "O'zneftgazmash" aksiyadorlik jamiyatlarining shartnomalari va majburiyatlar bo'yicha huquqiy voris hisoblanadi;

"O'ztransgaz" AJning amaldagi shartnomalari bo'yicha huquq va majburiyatlar o'zida saqlanib qoladi;

"O'ztransgaz" AJ va "Hududgazta'minot" AJ o'rtasidagi taqsimlash chegaralarida gaz hisoblash asboblarining ko'rsatkichlari va texnik holatini nazorat qilish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiysi va "O'zstandart" agentligi zimmasiga yuklatiladi.

14. Agentlik 2020-yil 1-aprelga qadar mazkur qarorning **5-ilovasida** ko'rsatilgan tashkilotlarning ustav kapitalidagi ulushlarining sotuvga chiqarilishini ta'minlasin, bunda ular ommaviy sotuvga chiqarilgan kundan boshlab uch oy ichida sotilmagan taqdirda, ayrim hollarda kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra to'lovlarni uch yildan besh yilgacha muddatda bo'lib to'lash imkoniyati nazarda tutilsin.

15. 2020-yil 1-iyulga qadar quyidagilar:

respublika tashqarisiga "bojxona hududidan tashqarida qayta ishslash" bojxona rejimi bo'yicha olib chiqib ketilgan uskunalar (gaz generatorlari, dvigatellar, kuch turbinalari va boshqalar) ularni qayta olib kirishda bojxona to'lovlardan (bojxona yig'imlari bundan mustasno);

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-noyabrdagi "2017 — 2021-yillarda "O'zbekneftgaz" AJ mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash bo'yicha davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 3372-son **qaroriga** muvofiq "O'zbekneftgaz "AJ va uning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan geologik qidiruv ishlari qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinsin.

16. Quyidagilarga:

gaz ta'minoti tashkilotlarining mulkiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 269-moddasi **1-bandida** ko'zda tutilgan yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha soliq imtiyozlari;

2021-yilning 1-yanvariga qadar muddatga "O'zbekneftgaz" AJ tarkibidan chiqariladigan tashkilotlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-son qaroriga ilovaning **9-bandi** tatbiq etilsin.

17. Qazib olinishi qiyin zaxiralarga ega ishlanayotgan konlarni tanlovlari o'tkazish orqali, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni uglevodorod xomashyosini qazib olish hajmlaridan qaytarish sharti bilan, taqsimlanmaydigan tavakkalchiliklarga ega shartnomalar asosida uglevodorod xomashyosi qazib olish bo'yicha yuqori texnologiyali xizmatlar ko'rsatish sohasida tajribaga ega bo'lgan kompaniyalar boshqaruviiga topshirish amaliyotga joriy etilsin.

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

a) bir hafta muddatda taqsimlanmaydigan tavakkalchiliklarga ega shartnomalar tuzish asosida uglevodorod xomashyosini qazib olish uchun xususiy investorlar jalb etiladigan Neft va gaz konlari ro'yxatini tasdiqlasini;

b) uch oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi 2020 — 2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida energiya samaradorligini oshirish dasturini qabul qilsin:

quyosh panellari va suv isitkichlar, shuningdek, iste’molchilar uchun energiya samarador qozonlar o‘rnatishni, shu jumladan ularni xarid qilish xarajatlarini qisman subsidiyalash yo‘li bilan rag‘batlantirish;

budgetdan tashqari Tarmoqlararo energiya tejash jamg‘armasini shakllantirish manbalarini kengaytirish;

nostandart gaz goryelka jihozlarini zamonaviy va energiya samarador gaz goryelka jihozlari bilan almashtirish;

iqtisodiyotning eng ko‘p energiya sarflovlchi sohalarida energiya resurslaridan oqilona foydalanish va energiya samaradorligi dasturlarini ishlab chiqish maqsadida majburiy ravishda energoaudit o‘tkazish.

19. Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, yoqilg‘i-energetika korxonalari tomonidan ishlab chiqilgan 2019 — 2021-yillarda yoqilg‘i-energetika tarmog‘i ehtiyojlari uchun o‘zlashtirishga tavsiya etiladigan tayyor mahsulotlar, uskunalar, butlovchi mahsulotlar, ehtiyyot qism va materiallar turlari, shuningdek, ularni ta’mirlash va modernizatsiyalash bo‘yicha ishlar va xizmatlarning ro‘yxati 6-ilovaga* muvofiq ma’qullansin.

* 6-ilova [rus tilidagi](#) matnda berilgan.

Belgilansinki, ushu ro‘yxatga kiritilgan loyihalarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-maydagi “Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4302-son [qarorida](#) ko‘zda tutilgan amalga oshirish mexanizmlari va qo‘llab-quvvatlash choralarini tatbiq etiladi.

20. Belgilansinki, 2019-yil 1-oktabrdan boshlab:

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi [Qonunidagi](#) monitoring, nazorat, shaffoflik, samaradorlik va natijadorlik tahlilini ta’mirlash borasidagi talablar strategik ahamiyatga ega bo‘lgan, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilishning alohida tartibi belgilangan xo‘jalik jamiyatlari va korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlarning barcha turlariga nisbatan tatbiq etiladi;

davlat buyurtmachilarini tomonidan tuzilgan shartnomalar reyestriga qo‘yilgan talablarga muvofiq, davlat buyurtmachisiga o‘zining yoki yuqori turuvchi organning rasmiy veb-saytida davlat xaridlarning to‘liq tavsifini keltirgan holda, ularning natijalarini e’lon qilish majburiyati ham yuklanadi;

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi doimiy ravishda davlat xaridlari samaradorligi va natijadorligining masofaviy tahlilini, zarur hollarda joylarga chiqib olib boradi hamda maxsus davlat xaridlari axborot portalini va o‘z rasmiy veb-saytlarida tahlil xulosalarini joylashtiradi;

yetkazib beruvchilarning ishtirok etishiga imkon berish maqsadida, shu jumladan import tovarlar, ishlar va xizmatlarni eng yaxshi takliflarni tanlab olish va to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bilan xarid qilish uchun kontraktlar tuzish avvaldan davlat xaridlari maxsus axborot portalida tegishli ma’lumotlar joylashtirilgan va keyin saralash natijalarini aks ettirilgan holda amalga oshiriladi.

21. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bir oy muddatda barcha davlat buyurtmachilarini tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlarning shaffofligini ta’mirlash bo‘yicha talablarni kuchaytirishni, nazorat qilishning aniq mexanizmlarini va unda jamoatchilikning faol ishtirokini rag‘batlantirish chora-tadbirlarini, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning, shu jumladan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Jahon bankining korrupsiyaga qarshi kurashish va har yilgi “Biznes yuritish” hisoboti borasidagi tavsiyalarini joriy etishni nazarda tutgan holda, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi [Qonuniga](#) o‘zgartirish va qo‘srimchalar yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

22. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda quyidagilarni:

2019-yil 1-dekabrga qadar O‘zbekiston Respublikasining “**Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida**”gi va “**Yer osti boyliklari to‘g‘risida**”gi qonunlarining, shu jumladan xorijiy investorlarga yer osti boyliklari maydonlarini taqdim etish bo‘yicha tanlov(auksion) savdolarini o‘tkazishning shaffof mexanizmlarini, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar tuzishning shartlarini, xususan, qazib olingan uglevodorod xomashyosining O‘zbekiston Respublikasiga tegishli bo‘lgan qismini ichki bozorga yetkazib berish bo‘yicha talabni ko‘zda tutuvchi yangi tahrirdagi loyihamasiga kirmsin;

ikki oy muddatda xalqaro mutaxassis va ekspertlarni jalb etgan holda, taqsimlanmaydigan tavakkalchiliklarga ega shartnomalar asosida uglevodorod xomashyosini qazib olishning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kirmsin.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi “Neft-gaz tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3107-son **qarorining 1 — 4, 7 va 8-bandlari hamda 1 — 16 ilovalari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.**

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga **7-ilovaga** muvofiq o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilsin.

25. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘srimchalar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflarni kirmsin.

26. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari J.A. Qo‘chqorov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2019-yil 9-iyul,
PQ-4388-ton

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldaggi PQ-4388-ton **qaroriga**
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasining neft-gaz tarmog‘ini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha respublika ishchi komissiyasi

TARKIBI

1. A.N. Aripov — O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, *Komissiya raisi*
2. J.A. Qo‘chqorov — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — O‘zbekiston Respublikasi moliya vaziri
3. A.S. Sultanov — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi — O‘zbekiston Respublikasi energetika vaziri
4. B.M. Mavlonov — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o‘rinbosari
5. G.K. Saidova — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o‘rinbosari
6. M.P. Olloyorov — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o‘rinbosari
7. M.R. Abdullayev — O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisining o‘rinbosari
8. B.A. Xodjayev — O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vaziri
9. R.K. Davletov — O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri
10. B.F. Islamov — O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi raisi
11. J.T. Mirzamaxmudov — O‘zbekiston Respublikasi energetika vazirining birinchi o‘rinbosari
12. T.A. Ishmetov — O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining birinchi o‘rinbosari
13. A.Y. Xaydarov — O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori

14. N.Sh. Sharipov — O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi
15. Sh.A. Vafayev — O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirining o‘rribosari, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining ijrochi direktori
16. N.T. Agzamov — O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi boshlig‘i
17. B.B. Sidiqov — “O‘zbekneftgaz” AJ boshqaruvi raisi
18. Sh.S. Samatov — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kotibiyati mudiri, Komissiya mas‘ul kotibi

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldaggi PQ-4388-son qaroriga
2-ILOVA

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda “O‘zbekneftgaz” AJ tarkibiy bo‘linmalari (boshqarma, zavod) etib qayta tashkil qilinadigan neft-gaz qazib olish va gazni qayta ishlash tashkilotlari

RO‘YXATI

T/r	Tashkilotning nomlanishi	Tarkibiy bo‘linmaning nomlanishi
1.	“Muborakneftgaz” MChJ	Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi
2.	“Sho‘rtanneftgaz” MChJ	Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi
3.	“Ustyurtgaz” MChJ	Ustyurt gaz qazib chiqarish boshqarmasi
4.	“Gazlineftgazqazibolish” MChJ	Gazli neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi
5.	“Andijonneft” AJ	Andijon neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi
6.	“Muborak GQIZ” MChJ	Muborak gazni qayta ishlash zavodi

Izoh:

qayta tashkil etilayotgan tashkilotlarda 2020-yilning 1-yanvariga qadar ushbu qaror chiqishiga qadar statistika organlariga topshirilishi ko‘zda tutilgan hisobotlarni topshirish majburiyati saqlab qolinadi.

2020-yilning 1-yanvaridan boshlab, 2019-yil va undan keyingi yillarda hududlarda ishlab-chiqarilgan sanoat mahsulotlarni hisoblash bazasiga yuqorida ko‘rsatilgan tashkilotlarning qayta tashkil etilganligini hisobga olib, tuzatishlar kiritiladi.

“O‘zbekneftgaz” AJga va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlarga qo‘sish yo‘li bilan qayta tashkil etiladigan ayrim tashkilotlar

RO‘YXATI

T/r	Qayta tashkil etilayotgan xo‘jalik jamiyatlarning nomlanishi	Aktivlarni qabul qiluvchi tashkilot	Izoh
1.	“Neftgazeksport” MChJ	“O‘zbekneftgaz” AJ	“O‘zbekneftgaz” AJda tashqi bozorlarda mahsulotni sotish vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha tarkibiy bo‘linma tashkil etilganligi munosabati bilan.
2.	“O‘ZNEFTEGAZGEOLOGIYA” MChJ		“O‘zbekneftgaz” AJda geologik-qidiruv, burg‘ulash ishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo‘linma tashkil etilganligi munosabati bilan.
3.	“Neftgazqazibolish-Injiniring” MChJ		“O‘zbekneftgaz” AJda qurilish-montaj ishlarini tashkil qiladigan va olib boradigan tarkibiy bo‘linma tashkil etilganligi munosabati bilan.
4.	“Ustyurt GKM direksiyasi” UK		“O‘zbekneftgaz” AJda qurilish-montaj ishlarini tashkil qiladigan va olib boradigan tarkibiy bo‘linma tashkil etilganligi munosabati bilan. Oqchalak shaharchasida joylashgan, “Ustyurt GKM direksiyasi” UK balansidagi uchta ko‘p qavatli 30 ta xonardonli turar joylarning O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi balansiga o‘tkazilishini hisobga olgan holda.
5.	“Jarqo‘rg‘onneft” AJ		“Jarqo‘rg‘onneft” AJning aktivlari (konlar va boshqa obyektlar) “O‘zbekneftgaz” AJga o‘tkazilishi munosabati bilan.
6.	“Geoburneftegazservis” MChJ		“O‘zbekneftgaz” AJda aktivlar va servis xizmatlarni boshqarish funksiyalarni amalga oshiradigan tarkibiy bo‘linma tashkil etilganligi munosabati bilan.
7.	“Neftegazinvest” MChJ		“O‘zbekneftgaz” AJda investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi tarkibiy

			bo‘linma tashkil etilganligi munosabati bilan.
8.	“Tarmoqlararo o‘quv-kurs kombinati” MChJ	“Tasis-o‘quv” ta’lim markazi MChJ	Tarmoq mutaxassislarining malakasini oshirish maqsadida birlashtirilayotgan xo‘jaliklar negizida “UNG training” MChJ yagona ta’lim markazini tashkil qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyulda PQ-4388-son qaroriga
4-ILOVA

Ustav kapitalidagi “O‘zbekneftgaz” AJ tarkibiga kiruvchi tashkilotlarning ulushi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga berilayotgan bozorlar, savdo va chorvachilik komplekslari

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomlanishi	Aktivlar balansiga egalik qiluvchi tashkilot
1.	“MURUVVAT-CNORVADOR” MChJ*	“O‘zbekneftgaz” AJ
2.	“Buxoro Markaziy dehqon bozori” AJ	“Buxoroneftniqaytaishlashzavodi” MChJ “Buxorogazsanoatqurilish” AJ
3.	“Neftagrokopleks” MChJ*	“Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MChJ
4.	“FAR-AGRO” MChJ**	“Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi” MChJ
5.	“Tabiiy toza” MChJ*	“Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MChJ
6.	“Yangi bozor” dehqon bozori” AJ	“Andijonneftbaza” MChJ “Andijonneft” AJ
7.	“Navoiy Savdo Kompleksi” AJ	“Navoiyneftbaza” MChJ
8.	“Yorqo‘rg‘on” dehkun (oziq-ovqat) bozori AJ	“Qarshineftbaza” MChJ
9.	“MNG-Agrokompleks” MChJ*	“Muborakneftgaz” MChJ
10.	“MNG-Parrandakompleks” MChJ*	“Muborakneftgaz” MChJ
11.	“MNG-CNORVA” MChJ*	“Muborakneftgaz” MChJ
12.	“Jarqo‘rg‘on Agro texno” MChJ*	“Jarqo‘rg‘onneft” AJ
13.	“Imperium Agro Tur” MChJ*	“Ustyurtgaz” MChJ

* Viloyatlar hokimlarining qaroriga asosan belgilangan tartibda tadbirkorlik subyektlariga sotish uchun mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga bepul beriladi.

** Viloyatlar hokimlarining qaroriga asosan belgilangan tartibda tadbirkorlik subyektlariga sotish uchun mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga bepul berish to‘g‘risidagi qaror investor bilan muzokaralar yakuni asosida qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyulda PQ-4388-son qaroriga
5-ILOVA

Ustav kapitalidagi “O‘zbekneftgaz” AJ va uning tarkibidagi tashkilotlarning ulushi O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga berilayotgan tashkilotlar

RO‘YXATI

T/r	Tashkilotlarning nomlanishi	Aktivlar balansiga egalik qiluvchi tashkilot
1.	“Muborakneftgazmontaj” AJ	“O‘zbekneftgaz” AJ
2.	“Janubgazqurilish” AJ	“O‘zbekneftgaz” AJ
3.	“Toshneftgazqurilish” AJ	“O‘zbekneftgaz” AJ

4.	“Buxorogazsanoatqurilish” AJ	“O‘zbekneftgaz” AJ
5.	“O‘ztashqineftgaz” AJ	“O‘zbekneftgaz” AJ
6.	“Avtogazta’minot” MChJ	“O‘zbekneftgaz” AJ
7.	“Qashqadaryoneftgazsanoatqurilish” AJ	“O‘zbekneftgaz” AJ
8.	“Farg‘ona neftbaza” MChJ	“O‘zneftmahsulot” AJ
9.	“Guliston neftbaza” MChJ	“O‘zneftmahsulot” AJ
10.	“Neftta’minot” AJ	“O‘zneftmahsulot” AJ
11.	“Qo‘qon neftgaz parmalash ishlari” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ
12.	“Buxoroneftgazparmalash” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ “O‘zneftgazqazibchiarish” AJ
13.	“Qashqadaryoparmalash ishlari” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ “O‘zneftgazqazibchiarish” AJ
14.	“Surxon parmalash ishlari” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ
15.	“Minora qurish ekspeditsiyasi” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ
16.	“O‘zpartamponaj” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ
17.	“Neft va gaz quduqlarini sinash” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ
18.	“Koson neftgazqidiruv ekspeditsiyasi” MChJ	“O‘zburneftgaz” AJ
19.	“Olot neftgazqidiruv ekspeditsiyasi” MChJ	“O‘zburneftgaz” AJ
20.	“Ustyurt qidiruv burg‘ulash boshqarmasi” MChJ	“O‘zburneftgaz” AJ
21.	“Texnik ta’minalash va butlash” MChJ	“O‘zburneftgaz” AJ
22.	“O‘zparavtotrans” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ
23.	“Qashqadaryo texnologik transport” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ
24.	“Sarbon-Neftegaz” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ
25.	“O‘zparta’minot” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ
26.	“Qashqadaryo neft-gaz qurilish va ta’mirlash” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ
27.	“O‘zparqurilish” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ
28.	“Buxoroneftgazavtonaql” AJ	“O‘zburneftgaz” AJ
29.	“O‘zbekkimyomash zavodi” AJ	“O‘zbekneftgaz” AJ “O‘zneftgazmash” AJ
30.	“Qo‘qon mexanika zavodi” AJ	“O‘zneftgazmash” AJ
31.	“Andijon sinov-tajriba zavodi” AJ	“O‘zneftgazmash” AJ
32.	◆Buxoro mexanika-ta’mirlash zavodi” AJ	“O‘zneftgazmash” AJ “O‘zneftgazqazibchiarish” AJ
33.	“Xo‘jaobod texnologik transport boshqarmasi” AJ	“O‘zneftgazqazibchiarish” AJ
34.	“To‘yepa metall qurilmalari” AJ	“O‘zbekneftgaz” AJ
35.	“Neftgazta’mirlash” AJ	“O‘zneftgazqazibchiarish” AJ
36.	“Neftgazqurishta’mirlash” AJ	“O‘zneftgazqazibchiarish” AJ
37.	“Neftgazqidiruv” AJ	“O‘zneftgazqazibchiarish” AJ
38.	“O‘zneftgazinformatika” AJ	“O‘zneftgazqazibchiarish” AJ
39.	“Muborakneftgaztrans” AJ	“O‘zneftgazqazibchiarish” AJ
40.	“Texnik ta’minalash va butlash boshqarmasi” MChJ	“O‘zneftgazqazibchiarish” AJ
41.	“Neftgazmontaj” MChJ	“O‘zbekneftgaz” AJ “O‘ztransgaz” AJ
42.	“NEFTGAZDEPOZIT” MChJ	“O‘zbekneftgaz” AJ “O‘ztransgaz” AJ
43.	“Bentonite” MChJ	“O‘zbekneftgaz” AJ “O‘zburneftgaz” AJ
44.	“Neftgazme‘yor” MChJ	“O‘zneftgazqazibchiarish” AJ
45.	“Andijonneftgazquduqta’mirlash” MChJ	“O‘zneftgazqazibchiarish” AJ

46.	“Maxsusbutlashgaz” MChJ	“O‘zneftgazqazibchiqarish” AJ
47.	“Muborak uy-joydan foydalanish ko‘p tarmoqli” MChJ	“O‘zneftgazqazibchiqarish” AJ
48.	“Vodiyneftgazavtotrans” MChJ	“Andijonneft” AJ
49.	“Yakkabog‘ voxा teks” MChJ	“Sho‘rtan gaz kimyo kompleksi” MChJ
50.	“Yangiariq plast” MChJ	“Sho‘rtan gaz kimyo kompleksi” MChJ “Neftegazinvest” MChJ
51.	“Mebellar uyi” MChJ	“Sho‘rtan gaz kimyo kompleksi” MChJ
52.	“Nukus Polimer” MChJ	“Sho‘rtan gaz kimyo kompleksi” MChJ “Neftegazinvest” MChJ
53.	“Muborakeko-hayot” MChJ	“Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MChJ
54.	“Muborak teks” MChJ	Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MChJ
55.	“Mo‘min tekstil” MChJ	Muborak gazni qayta ishlash zavodi” MChJ
56.	“Mng-quruvchi” MChJ	“Muborakneftgaz” MChJ
57.	“Koson maxsus mexanizatsiyalashgan” MChJ	“O‘zneftmahsulot” AJ
58.	“Viloyat monitoring markazlari” MChJ	“Urgench neftbaza” MChJ
59.	“Neftegazmineral” MChJ	“O‘zburneftgaz” AJ
60.	“Ungm-Biogaz” MChJ	“O‘zneftgazmash” AJ
61.	“O‘zneftgazaloqa” MChJ	“O‘zbekneftgaz” AJ
62.	“Polietilen Quvurlar” UK	“Sho‘rtan gaz kimyo kompleksi” MChJ
63.	“Ko‘prikyo‘lqurilish boshkarmasi” UK	“Sho‘rtan gaz kimyo kompleksi” MChJ
64.	“Sho‘rtanneftgaz-tekstil” UK	“Sho‘rtanneftgaz” MChJ
65.	“Polipropilen Quvurlar” ShK	“Sho‘rtan gaz kimyo kompleksi” MChJ
66.	MTP “Agromash-servis”	“Jizzax neftbaza” MChJ
67.	“Kultakneftgaz” QK MChJ	“O‘zbekneftgaz” AJ “Sho‘rtanneftgaz” MChJ
68.	“UNG Econn” QK MChJ	“Neftgazinvest” MChJ
69.	“Uz-Prista” QK MChJ	“O‘zneftmahsulot” AJ
70.	“O‘zmaloyl” QK MChJ	“O‘zneftgazqazibchiqarish” AJ
71.	“Uztatgeoservis” QK MChJ	“O‘zbekgeofizika” AJ
72.	“Uz-PristaResypling” QK	“O‘zneftmahsulot” AJ

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagи PQ-4388-son qaroriga
7-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi
Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan**

O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 14-oktabrdagi “Dengizko‘l gaz-kondensat konining (GKK) Xo‘jasayat uchastkasi, Xo‘jadavlat GKK va Sharqiy Olot GKKni o‘zlashtirish” investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asosini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-2633-son

qarorining rus tilidagi matni 4-bandining **uchinchi xatboshi** quyidagi mazmundagi uchinchi va to‘rtinchi xatboshilar bilan almashtirilsin:

tamojennix platejey (za isklyucheniyem sborov za tamojennoye oformleniye) vvozimie oborudovaniye, materiali, zapasnie chasti, komplektuyushchiye izdeliya, instrumenti i mehanizmi, programmnoye obespecheniye, ne proizvodimie v respublike, a takje goryuche-smazochnie materiali, po perechnym, formiruyemim v ustanovlennom poryadke;

periodicheskix tamojennix platejey (za isklyucheniyem sborov za tamojennoye oformleniye) vvozimie stroitelnuyu i spetsialnuyu texniku, oborudovaniye, komplektuyushchiye izdeliya, spetsialnie transportnie sredstva, sbornie stroitelnie konstruksii v tamojennom rejime “vremenniy vvoz”, po perechnym, formiruyemim v ustanovlennom poryadke.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-yanvardagi “2017-yilda respublikamizda neft, neft mahsulotlari, tabiiy gaz va suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hamda iste’mol qilish to‘g‘risida”gi PQ-2745-son qarori 8-bandida:

a) birinchi xatboshidagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan” so‘zları “Belgilangan tartibda shakllantiriladigan” so‘zları bilan almashtirilsin;

b) to‘rtinchi xatboshidagi “2019-yilning 1-yanvariga” so‘zları “2020-yilning 1-iyuliga” so‘zları bilan almashtirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-maydagi “O‘zbekiston Mustaqilligi” investitsiya blokida geologik qidiruv ishlari va “Mustaqillikning 25 yilligi” konida qo‘sishma qidiruv va o‘rganish ishlarini olib borgan holda O‘zbekiston Respublikasining Surxondaryo viloyatida gaz-kimyo kompleksini qurish to‘g‘risida”gi PQ-2948-son **qarori** quyidagi mazmundagi 4¹-band bilan to‘ldirilsin:

“4¹. Bitimni amalga oshirilishini jadallashtirish maqsadida “Surhan Gas Chemical Operating Company” MChJ XKga:

2020-yilning 1-yanvariga qadar loyiha va pudratchi tashkilotlari bilan, to‘g‘ridan to‘g‘ri muhokamalar asosida, ishlarni amalga oshirish bo‘yicha bitimlarni tender o‘tkazmasdan tuzishga;

2022-yilning 1-yanvariga qadar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bilan bir vaqtida qurilish-montaj ishlarini ham amalga oshirishga;

loyiha-smeta hujjatlari tasdiqlanguniga qadar loyiha doirasidagi ishlarni oldindan moliyalashtirishga istisno tariqasida ruxsat berilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-maydagi “Toshkent shahrida ko‘p tarmoqli muz kompleksini qurishni tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2964-son qarorining **1** va **5-bandlaridagi** “2018” raqamlari “2019” raqamlari bilan almashtirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4067-son qarori rus tilidagi **12-ilovasining** 20-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-iyundagi “Neft-gaz tarmog‘ida litsenziyalash tartibotlarini qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznesni yuritishni yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 444-son qarori 1-ilovasining 11-band “**g** kichik bandi “texnika vositalari” so‘zlaridan keyin “shu jumladan zamonaviy o‘lchov asboblarini Tabiiy gazni nazorat qilish va hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimiga ulash orqali” so‘zları bilan to‘ldirilsin.

7. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-dekabrdagi “Suv xo‘jaligi tashkilotlari tomonidan sanoat va energetika tashkilotlariga texnik suv yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1008-son **qarorida**:

a) **2-band** quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Energetik qurilmalarni sovutish uchun ishlatiladigan texnik suv o‘z manbasiga qaytarilishi hamda tabiiy oqim va gidroelektrostansiyalar kanallaridagi suv ishlatilishini inobatga olgan holda “Toshkent issiqlik elektr stansiyasi” unitar korxonasi, “Toshkent issiqlik elektr markazi” unitar korxonasi hamda “Yangi-Angren issiqlik elektr stansiyasi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan texnik suv yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq to‘lanmaydi”;

b) **2-ilovaning 5 — 7-bandlari** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.07.2019-y., 07/19/4388/3400-son; 18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.07.2021-y., 06/21/6258/0651-son)